



UO‘K: 81'42:327

Javohirmirzo ABDUG‘ANIYEV,
Mustaqil izlanuvchi, Namangan davlat universiteti
Stajyor o‘qituvchi, Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti (UNIEP)
E-mail: javohirmirzo3732@gmail.com, ORCID: 0009-0005-6251-487X

Chonnam National University, PhD Graduate School Z. Juraev taqrizi asosida

COGNITIVE-PRAGMATIC AND LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF TERMS IN UZBEKISTAN DIPLOMATIC DISCOURSE: ANALYSIS BASED ON THE CORPUS OF PRESIDENTIAL SPEECH (2026)

Annotation

This article examines the cognitive-pragmatic and linguocultural features of diplomatic terms in Uzbek, drawing on a corpus of President Mirziyoyev’s official speeches and congratulatory addresses from January to May 2026. Sixteen texts from president.uz yielded 121 unique terms distributed across seven thematic categories. The study shows that Uzbek diplomatic discourse deploys a recognisable repertoire of speech-act formulae and contains culturally specific concepts mahalla, Rennans, bag‘rikenglik, Yangi O‘zbekiston that present persistent challenges for English translation. Findings advance Uzbek terminological research at the intersection of cognitive linguistics, pragmatics, and linguoculturology.

Key words: Diplomatic terminology, cognitive linguistics, pragmatics, linguoculturology, Uzbek discourse, corpus analysis, speech acts, translation.

КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ СВОЙСТВА ТЕРМИНОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ КОРПУСА ПРЕЗИДЕНТСКИХ РЕЧЕЙ (2026)

Аннотация

В данной статье рассматриваются когнитивно-прагматические и лингвокультурные особенности дипломатических терминов на узбекском языке на основе корпуса официальных речей и поздравительных обращений президента Мирзиёева за период с января по май 2026 года. Шестнадцать текстов из архива president.uz позволили выявить 121 уникальный термин, распределенный по семи тематическим категориям. Исследование показывает, что узбекский дипломатический дискурс использует узнаваемый репертуар формул речевых актов и содержит культурно специфические понятия: mahalla, Rennans, bag‘rikenglik, Yangi O‘zbekiston, которые представляют собой постоянные проблемы для перевода на английский язык. Полученные результаты способствуют развитию узбекской терминологической науки на стыке когнитивной лингвистики, прагматики и лингвокультурологии.

Ключевые слова: Дипломатическая терминология, когнитивная лингвистика, прагматика, лингвокультурология, узбекский дискурс, корпусный анализ, речевые акты, перевод.

O‘ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA TERMINLARNING KOGNITIV-PRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI: PREZIDENT NUTQLARI KОРPUSI ASOSIDA TAHLIL (2026)

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026 yil yanvar–may oylari nutqlari va tabriknomalar korpusi (16 ta rasmiy matn) asosida o‘zbek diplomatik terminlarining kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Korpusdan 121 ta unikal termin ajratib, yetti toifaga tasnif etilgan. Tadqiqot o‘zbek diplomatik diskursining o‘ziga xos nutq akti repertuarini va ingliz tiliga tarjimai mushkul bo‘lgan madaniy kontseptlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Diplomatik terminologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, lingvokulturologiya, o‘zbek diskursi, korpus tahlili, nutq aktlari, tarjima.

Kirish. Diplomatik til siyosat va madaniyatning kesishgan nuqtasida shakllanadigan, semantik qatlamlarga boy, pragmatik jihatdan aniq maqsadga yo‘naltirilgan maxsus nutq tizimi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro maydondagi nutqlari va tabriknomalar matni bu jihatdan o‘zbek diplomatik terminologiyasining eng jonli va boyligini namoyish etadi.

Tilshunoslik fanida terminologik tadqiqotlar kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashib yangi sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda [1]. Terminni quruq leksik birlik emas, balki bilim va madaniyatning tashuvchisi sifatida o‘rganish zamonaviy terminologiyashunoslikning asosiy tamoyiliga aylangan [O‘zbek tilshunosligida diplomatik terminologiyani alohida

tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganish endigina shakllanayotgan yo‘nalish bo‘lib, siyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot korpusi president.uz saytidagi 2026 yil 26 yanvar – 22 may oralig‘idagi 16 ta matndan 10 ta xalqaro nutq va 6 ta diplomatik tabriknomadan tashkil topdi [3]. Ulardan 121 ta unikal diplomatik termin ajratildi. Tadqiqot maqsadi ushbu terminlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash, nutq aktlari tizimidagi o‘rmini belgilash va lingvokulturologik ko‘rinishlarini tavsif qilishdan iborat.

I. Nazariy asos va metodologiya: Termin klassik ta‘rifga ko‘ra aniq, bir ma‘noli va uslubiy neytral bo‘lishi talab etiladi [4]. Biroq diplomatik til bu talabni vaziyatga ko‘ra maqsadli ravishda buzishi mumkin to‘g‘ri noaniqlik yoki ko‘p

ma'noilik diplomatik manevr vositasiga aylanadi. Shu sababli diplomatik termin kognitiv lingvistika doirasida alohida o'rganilishi zarur: kognitiv yondashuv bo'yicha termin inson tafakkuridagi kontseptual makonning til ifodasidir [5].

Pragmatik jihatdan J. Ostin va J. Serl nutq akti nazariyasi asos qilib olingan [6]. Har bir diplomatik ibora nafaqat denotatsiya, balki ilokutiv kuch (illocutionary force) ham tashiydi: "taklif etaman", "chaqiraman", "qo'llab-quvvatlaymiz" kabi iboralar o'z leksik ma'nosidan ko'proq muayyan diplomatik amalni bajaradi.

Lingvokulturologik yondashuv V. Vorobev va V. Teliyaning metodologiyasiga asoslanib [7]. terminni madaniy kodni tashuvchi sifatida o'rganadi. O'zbek diplomatik terminologiyasida bunday madaniy kodlar ayniqsa yaqqol namoyin bo'ladi. Tadqiqotda to'rt usul qo'llanildi: (1) korpus metodi; (2) semantik-pragmatik tasnif; (3) kontekstual tahlil; (4) qiyosiy tahlil.

II. Korpus va terminlar tasnifi: 2026 yil yanvar may korpusi 16 ta matn (10 nutq + 6 tabrik), taxminan 85 000 so'zdan iborat. Ajratilgan 121 ta unikal termin quyidagi toifalarga bo'linadi (1-jadval):

1-jadval. Diplomantik terminlarning toifaviy taqsimoti

#	Toifa nomi	Terminlar soni
1	Tashkilotlar va institutlar	22
2	Diplomatik hujjatlar va jarayonlar	18
3	Diplomatik munosabatlar va siyosat	21
4	Xalqaro huquq va me'yorlar	13
5	Iqtisodiy diplomatiya	16
6	Diplomatik muloqot formulalari	17
7	Lingvokulturologik terminlar	14
JAMI		121

III. Kognitiv-semantik xususiyatlar: Terminlar tahlili ularning uchta asosiy kontseptual sxema BIRLIK, MAJBURIYAT va MULOQOT doirasida tashkil topganini ko'rsatadi.

Birlik kontseptual sxemasi: "Strategik sheriklik", "mintaqaviy integratsiya", "turkiy birlik", "hamjihatlik", "qardosh xalqlar" kabi terminlar matnlarning 87,5 foizida qayd etildi. Bu terminlar BIRLIK kontseptual makonini turli prizmalardan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va etnik birgalikda yoritib, diplomatik nutqning asosiy ramkasini shakllantiradi.

Ayniqsa e'tiborli jihat "strategik sheriklik va ittifoqchilik" (strategic partnership and alliance) tarzidagi kengaytirilgan shakl. Ikki mustaqil diplomatik maqomning birlashtirilishi ingliz tilidagi standart terminologiyada kamdankam uchraydi va o'zbek diplomatik tafakkurining o'ziga xos kognitiv belgisi hisoblanadi. TDT sammitidagi nutqda Yassaviy she'ridan iqtibos keltirish[8]. esa terminning etnolingvistik xotirada chuqur ildiz otganini tasdiqlaydi.

Majburiyat kontseptual sxemasi: "Qonun ustuvorligi", "inson huquqlari, "barqaror rivojlanish", "Parij bitimi" kabi

terminlar MAJBURIYAT sxemasini ifodalaydi. Diqqatga sazovor: o'zbek diplomatik diskursida "majburiyat" so'zi bevosita ishlatilmaydi u "...ga tayyormiz", "...ni qo'llab-quvvatlaymiz" kabi fe'l iboralar orqali yashirin ifodalanadi. Bu pragmatik yumshatish (mitigation) strategiyasining ko'rinishi bo'lib, o'zbek diplomatik madaniyatidagi "to'g'ridan majbur qilmaslik" tamoyilini aks ettiradi.

Muloqot kontseptual sxemasi: "Sammit", "anjuman", "forum", "assambleya", "delegatsiya" kabi terminlar korpusdagi eng yuqori chastotali birliklar. Bu terminlar o'zbek matnida ko'pincha "muloqot maydoni", "fikr almashish" iboralar bilan birgalikda qo'llanilib, nominatsiyaviy funktsiyadan tashqari munosabatni mustahkamlash funktsiyasini ham bajaradi. Urbanizatsiya forumidagi "nufuzli muloqot maydoni" iborasi buning yaqqol misoli.

IV. Pragmatik xususiyatlar: nutq aktlari tahlili: Korpus tahlili ko'rsatdiki, o'zbek diplomatik diskursida terminlar beshta nutq akti toifasida faoliyat ko'rsatadi. Quyida har bir toifa o'ziga xos xususiyatlari va korpusdan olingan aniq misollar bilan taqdim etiladi (2-jadval):

2-jadval. O'zbek diplomatik diskursida nutq akti turlari

Nutq akti turi	Funksiyasi	Korpusdan misol (o'zbekcha)	Inglizcha muqobili
Direktiv	Harakatga chaqirish	"ga taklif etaman"; "ga chaqiraman"	I propose...; I call upon...
Assertiv	Ishonchni bildirish	"deb ishonaman"; "deb aminman"	I am confident...; I am firmly convinced...
Komissiv	Majburiyat olish	"ga tayyormiz"; "ni davom ettiramiz"	We are ready to...; We will continue...
Ekspressiv	Hissiy munosabat	"tashakkur izhor etaman"; "olqishlaymiz"	I convey my appreciation; We welcome...
Deklarativ	Yangi holat yaratish	"tashkil etishni taklif etaman"	I propose to establish...

Direktiv aktlar yumshoq modal shaklda birinchi shaxs birlik fe'li orqali ifodalanishi ingliz tilidagi imperativ uslubdan tubdan farq qiladi [9]. Ekologik sammit nutqida[10]. "tashkil etish muhim qadam bo'ladi, deb hisoblayman" deyilishi direktiv aktning assertiv qobig'iga o'ralgan holati, o'zbek diplomatiyasining "yuzni saqlash" (face-saving) strategiyasining tipik ko'rinishi. Ekspressiv aktlar ichida "izhor etmoq" fe'li alohida e'tibor talab qiladi: arabcha "zohir qilmoq" ma'nosiga ega bu so'z [11]. dil to'ridan ko'tarilgan ichki holatni namoyon etishni anglatib, inglizcha "to express" atamasining rasmiy-kommunikativ ma'nosidan semantik jihatdan chuqurroq turadi. Bu ikki tildagi pragmatik asimetriyaning aniq namunasidir. Deklarativ aktlar ham

ko'pincha "taklif" qobig'iga o'raladi: rasmiy tashabbusni bir tomonlama e'lon qilish o'rniga barcha manfaatdor tomonlarni jarayonga jalb etuvchi konsensus uslubi qo'llaniladi. Bu o'zbek diplomatik madaniyatining jamoachilik tamoyilini bevosita aks ettiradi.

V. Lingvokulturologik xususiyatlar: Korpusdagi 14 ta lingvokulturologik termin o'zbek diplomatik diskursining eng o'ziga xos qatlamini tashkil etadi: ular ingliz tiliga to'la tarjima qilinishi qiyin bo'lgan madaniy kodni o'zida mujassam etadi.

"Mahalla" tarjima muammosiga aylangan diplomatik termin: "Mahalla" Butunjahon urbanizatsiya forumida [12]. xalqaro kun tartibiga olib chiqildi. Inglizcha "community self-governance institution" tarjimasi tuzilmaviy mohiyatni

ifodalasa-da, mahallaning jamoa xotirasini saqlash, nizolarni hal qilish va ijtimoiy ta'minot funksiyalarini ya'ni uning madaniy-emotsional mohiyatini bermaydi. Bu terminning diplomatiya vositasiga aylanishi, milliy boshqaruv modelining xalqaro kun tartibiga kiritilishi sifatida ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg'otadi.

“Renessans” o'zbek madaniy-diplomatik konsepti: O'zbek diplomatik diskursida “Renessans” uch pog'onali kontseptual tizim shaklida namoyon bo'ladi: Birinchi (IX–XV asrlar, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek), Ikkinchi (XV–XVI asrlar, Temuriylar) va Uchinchi (zamonaviy O'zbekiston) Renessans [13]. Inglizcha “Renaissance” atamasi G'arb tarixiga Italiya, Florensiya boy bo'lsa, o'zbek “Renessans”i Sharq ilmi va Islom sivilizatsiyasi kontekstida tushunilishi zarur. Bu muhim lingvokulturologik tafovut.

“Bag'rikenglik” diplomatik leksikondagi sufiyona ildiz: Arabcha “bag'r” (yurak) va o'zbekcha “keng” so'zlaridan tashkil topgan bu atama Yassaviy tariqatining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq holda ishlatildi. Inglizcha “tolerance” bilan qiyoslaganda [14]. “bag'rikenglik” passiv chidash emas, aktiv va ko'ngil ochiq qabul qilishni anglatadi bu farq diplomatik tarjimada pragmatik ahamiyat kasb etadi.

“Yangi O'zbekiston” diplomatik identifikatsiyaning ustunchi konsepti: Barcha 16 ta matnda uchraydigan bu atama uch semantik qatlam ustida qurilgan: tarixiy uzilish, modernizatsion da'vo va xalqaro identifikatsiya. “New Uzbekistan” to'g'ridan-to'g'ri tarjima sifatida to'g'ri, ammo uch qatlamli semantik yukni to'la ko'tarmaydi.

VI. O'zbek–ingliz diplomatik terminologiyasining qiyosiy tahlili Qiyosiy tahlil o'zbek va ingliz diplomatik terminlari o'rtasida to'rt turdagi semantik munosabatni aniqladi:

To'liq ekvivalentlik (full equivalence): “Sammit” “summit”; “delegatsiya” “delegation”. Asosan ingliz tilidan o'zlashgan, xalqaro standartlashtirilgan terminlar.

Qisman ekvivalentlik (partial equivalence): “Izhor etmoq” “to express”: o'zbek varianti emotsional chuqurlikni ifodalasa, inglizcha varianti rasmiy kommunikatsiya aktini bildiradi.

Madaniy ekvivalentlik (cultural equivalence): “Mahalla” “community self-governance institution”: tuzilmaviy tarjima to'g'ri, ammo madaniy-emotsional uyushma berilmaydi.

Tarjima bo'shliq (translation gap): “Bag'rikenglik” “tolerance”: inglizcha ekvivalent aktivlik va ma'rifatparvarlik ma'nosini to'la bermaydi. Bu tasnif diplomatik tarjima amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Semantik yo'qotishlar nafaqat tilshunoslik muammosi, balki diplomatik risk ham bo'lishi mumkin [15].

Xulosa. birinchidan, o'zbek diplomatik terminologiyasi BIRLIK, MAJBURIYAT va MULOQOT kontseptual sxemalari atrofida tashkil topgan bo'lib, bu sxemalar milliy tarixiy xotira va qadriyat tizimidan oziqlanadi.

Ikkinchidan, beshta nutq akti turi direktiv, assertiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ hammasi kuzatildi. Ularda to'g'ridan-to'g'ri buyruq o'rniga yumshatilgan modal shakllar va bilvosita nutq aktlari qo'llanilishi o'zbek diplomatik uslubining o'ziga xos belgidir.

Uchinchidan, “mahalla”, “bag'rikenglik”, “Renessans”, “Yangi O'zbekiston” terminlarining ingliz tiliga to'liq tarjimasini qiyin ekani aniqlandi: ularning semantik makonida madaniy xotira, tarixiy ildiz va milliy identifikatsiya kodlari mujassam.

To'rtinchidan, to'rt turdagi semantik munosabat to'liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik va tarjima bo'shliq aniqlanib, diplomatik tarjima sifatini oshirish uchun amaliy asos yaratdi.

Ushbu tadqiqot dissertatsiya ishining III bobini boyitishga xizmat qiladi. Keyingi bosqichda 2025 yil ikkinchi yarmi korpusida qiyosiy tahlil olib borish rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR

- Leychik V.M. Terminovedeniye: Predmet, metody, struktura. 2-ye izd. M.: KomKniga, 2006. S. 24.
- Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999. P. 87–103.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/category/5> (murojaat sanasi: 26.05.2026).
- Vinogradov V.V. Leksikologiya va leksikografiya. M.: Nauka, 1977. 312 b.
- Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Stanford: Stanford Univ. Press, 1987. P. 46–52.
- Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford Univ. Press, 1962; Searle J.R. Speech Acts. Cambridge: Cambridge Univ. Press, 1969.
- Vorobev V.V. Lingvokulturologiya. M.: RUDN, 1997. 331 s.; Madvaliyev A. O'zbek tilshunosligi masalalari. T.: Fan, 2012.
- Mirziyoyev Sh.M. TDT norasmiy sammitidagi nutqi. 15 may 2026. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9215>
- Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge Univ. Press, 1987. P. 101–129.
- Mirziyoyev Sh.M. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kengashi majlisidagi nutqi. 22 aprel 2026. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9132>
- Madvaliyev A. va b. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zME, 2008. 3-jild. 246-b.
- Mirziyoyev Sh.M. Butunjahon urbanizatsiya forumi nutqi. 18 may 2026. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9224>
- Mirziyoyev Sh.M. Islom sivilizatsiyasi markazi ochilish marosimidagi nutqi. 17 mart 2026. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9016>
- Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition. Oxford: Oxford Univ. Press, 1992. P. 63–72.
- Šarčević S. New Approach to Legal Translation. The Hague: Kluwer Law International, 1997. P. 229–241.